

MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI VA MODAL SO'ZLAR O'RTASIDA TRANSPOZITSIYA HODISASI

Choriqulova Fayro'za Telman qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li,
ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti
fayruza92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada transpozitsiya haqida umumiy ma'lumot va mustaqil so'z turkumlari hamda alohida olingan so'z turkumlariga oid birliklar o'rtasidagi transpozitsiya hodisasiga ilmiy nazariyalar bilan birgalikda misollar yordamida tahlillar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar. transpozitsiya, ichki va tashqi transpozitsiya, konversiya, kel, qani, to'g'ri.

BAĞIMSIZ SÖZ DÜZENLERİ VE MODAL SÖZLER ARASINDA TRANSPOZİSYON OLAYI

Choriqulova Fayroza Telman kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi
Pardayev Sirojiddin Şokir oğlu,
Bilimsel danışman, özbek dili ve edebiyatı bölümü asistanı

Özet. Bu makalede, transpozisyon olayı ve bağımsız sözcük türleri ile ayrı bir şekilde ele alınan sözcük türleri arasındaki transpozisyon olayı, bilimsel teorilerle birlikte örnekler yardımıyla analiz edilmiştir.

Anahtar kelimeler. Transpozisyon, iç transpozisyon, dış transpozisyon, konversiyon, gel, hadi, doğru.

ТРАНСПОЗИЦИЯ МЕЖДУ НЕЗАВИСИМЫМИ ЧАСТЯМИ РЕЧИ И МОДАЛЬНЫМИ СЛОВАМИ

Чориқулова Файроза Телман кизи,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Пардаев Сирожиддин Шокир оглы,
научный руководитель, ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье представлена общая информация о транспозиции, а также проведен анализ явления транспозиции между независимыми частями речи и единицами, относящимися к отдельным частям речи, с учетом научных теорий и примеров.

Ключевые слова. Транспозиция, внутренняя и внешняя транспозиция, конверсия, кел, кани, правильно.

THE PHENOMENON OF TRANSPOSITION BETWEEN INDEPENDENT WORD CLASSES AND MODAL WORDS

Choriqulova Fayroza Telman kizi,
student of Uzbekistan-Finland pedagogical institute
Pardayev Sirojiddin Shokir og'li,

scientific advisor, assistant at the Department of uzbek language and literature

Abstract. *This article provides general information about transposition, as well as an analysis of the phenomenon of transposition between independent word classes and units related to specific word classes, accompanied by scientific theories and examples.*

Keywords. *transposition, internal and external transposition, conversion, kel, qani, to'g'ri.*

Kirish. Bugungi kunda hozirgi o'zbek adabiy tili fani o'z oldiga ushbu fanning mohiyati, o'zbek tilining grammatik boyligi, leksik-semantik birliklari, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari, til sathlaridagi barcha o'zgarish hamda yangiliklar bilan yaxshi tanish bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan. Ushbu fandagi muhim tarmoqlardan biri – transpozitsiya hodisasidir.

Bizga ma'lumki, davrlar mobaynida har sohada o'zgarish va yangiliklar kuzatiladi. Tilshunoslik ham bundan mustasno emas. Til hodisalari rivojlanib borish natijasida bir-biriga o'tib boradi. Shu asnoda transpozitsiya yuz beradi. Transpozitsiya lotincha so'z bo'lib, "o'rin almashtirish" degan ma'noni anglatadi. Transpozitsiyada so'zlar nutqning ma'lum bir qismidan ikkinchisiga o'tadi. Ushbu atamaga Azim Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobida: "Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanishi" [1, 45 b.], – deb ta'rif keltirib o'tilgan. Transpozitsiya o'z o'rnida 2 xil bo'ladi:

1. Ichki transpozitsiya.
2. Tashqi transpozitsiya.

Ichki transpozitsiya – so'z turkumlarining bir guruhi doirasida o'zaro vazifa almashinuvi.

Tashqi transpozitsiya – har xil turkum doirasidagi vazifa almashinuv jarayoni.

Til tizimi nutqning ma'lum qismidan boshqa bir qismiga o'tish uchun o'z imkoniyatlariga ega. Ba'zi so'zlar o'z atash ma'nosini yo'qotib, modallik vazifasini shakllantirishi yoki yordamchi turkumdan mustaqil so'zga aylanishi mumkin. So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishining har bir leksik-grammatik jarayoni o'ziga xos semantik, morfologik va sintaktik tartib shartlariga ega va har bir aniq holatda ba'zi shartlar yetakchi, boshqalari esa faqat hamroh yoki neytraldir. So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishining yagona universal sharti yo'q [2, 115 b.]. Biz mustaqil so'z turkumlarining modallashuvi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz, ya'ni ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlarining o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotib, modal so'z vazifasida kelishini misollar yordamida tahlil qilib ko'ramiz.

Fe'l so'z turkumiga tegishli kel so'zi ayrim kontekslarda harakat vazifasini modallik, ya'ni taklif kiritish ma'nosida qo'llanadigan modal so'zga almashtiradi.

M: Kel, endi boshqa tortishmasdan ahil yashaylik. Ushbu gapda kel so'zi modal so'z bo'lib kelgan. Bu gapni kelmoq harakati deb tushunadigan bo'lsak, gap tahlilida xatolikka yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki bu gapda harakat ma'nosi aks etmagan, balki so'zlovchi o'z fikriga qo'shimcha ma'no kiritgan [3, 54 b.].

Shahardan tezroq kel. Bu gap tarkibidagi kel esa fe'l so'z turkumidagi harakat ma'nosini, ya'ni qayerdandir kelish ma'nosini ifodalab kelgan.

Qo'y fe'li misolida ham tahlil qilib ko'ramiz.

1. *Qo'y, endi shu dunyoning g'amlarini.*

2. *Daftarlarni o'sha stol ustiga qo'y.* Yuqorida keltirilgan gaplarning birinchisida modal so'zga aylangan fe'l berilgan, ikkinchisida esa harakat ma'nosini saqlagan qo'ymoq fe'li aks etgan.

Bu misollar fe'l so'z turkumi va modal so'zlar o'rtasidagi ko'chish jarayoniga tegishli. Sifat so'z turkumi bilan ham bu jarayon ko'zga tashlanadi.

M: a) To'g'ri, hayotning turli xil sinov-u mashaqqatlari bor, lekin shularni yengib o'tgan insongina haqiqiy baxtga erishadi.

b) Hayotning turli xil sinov-u mashaqqatlari borligi to'g'ri, lekin shularni yengib o'tgan insongina haqiqiy baxtga erishadi.

Quyidagi misollarda aks etgan farq yaqqol ko'rinib turibdi. Birinchi gapda *to'g'ri* so'zi modal so'z vazifasida kelgan va gap bo'laklari bilan hech qanday aloqaga kirishmagan. Ikkinchi gapda *to'g'ri* sifat ma'nosida kelib, ot kesim vazifasini bajargan. Birinchi gapda so'zlovchi fikrga tasdiq ma'nosini yuklagan. Bundan ko'rinib turibdiki, nafaqat semantik ma'no jihatdan, balki gap bo'lagi vazifasini bajarish nuqtayi nazaridan ham o'rni almashib ketadi [4, 143 b.].

Olmosh so'z turkumida ham modal so'z bilan transpozitsiya hodisasi kuzatiladi. Qani so'zi misolida tahlil qilib ko'ramiz.

1. *Qani, darsni boshladikmi?* - modal so'z

2. *Mening sumkam qani?* -so'roq olmoshi

Son so'z turkumi doirasida birinchidan, ikkinchidan so'zlari orqali almashuv yuz beradi.

- *Birinchidan, bu fikr mutlaqo xato edi.* - modal so'z

Birinchidan keyin mening navbatim. - son (otlashganda)

Badiiy asarlar misolida ham transpozitsiya namunalarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Shuhratning "Oltin zanglamas" romanidan olingan quyidagi jummalarni keltirib o'tamiz:

- *Ikki yuvosh parrandaning bu nojo'ya ishi Qodirning g'ashiga tegib, endi haydamoqchi bo'lib turgan edi, bittasi daraxtga uchib o'tdi, keyingisi ketidan qarab qoldi. Qodir: "Qani, endi nima qilar ekan!"* - deb turgan edi, qarshisida bir qiz ko'rindi.

- *Mirsalimning insofga kelib qolganidan xursand Sodiq: Qani endi, bir darsiga kirib ko'ray, - deb qo'ng'iroqdan o'n besh minut keyin sinfiga kirdi, bir chetga o'tib o'tirdi.*

- *Musharraf esa go'yo hech narsadan xabari yo'q kishidek, og'zidagi "Buxoriy" saqichni qarsillatib chaynar, Sodiqning: "Qo'y, uyat bo'ladi", - deyishiga kulib: "Tishni tozalaydi, buvalarimizdan qolgan tish cho'tkasi", - derdi.*

- *Shunday-ku-ya... lekin ba'zilar tanqidni noto'g'ri tushunishadi. Qani, hamma ham sizdek oq ko'ngillik bilan qabul etsa...*

Yuqoridagi gaplarda qani va qo'y so'zlarining modal so'z bo'lib kelishini ko'rdik.

- *Sodiq uning aytganini qildi. Ko'rsa, salom bermadi.*

Bir kuni Omil qori:

- *Saloming qani, badbaxt, yeb qo'ydingmi?* - degan edi [5, 98 b.].

Bu gapda esa *qani* so'zining olmosh vazifasida kelganini ko'ramiz.

Ko'rinib turibdiki, mustaqil va alohida olingan so'z turkumlari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan holda farqlanadi. Shundagina ularning asl kontekst tarkibida anglatgan ma'nosi aniqlanadi.

Kuzatishlar natijasida so'z turkumlari masalasi, ular o'rtasidagi transpozitsiya hodisasi nisbatan aniqlashdi, chunki so'z turkumlarining ma'nolari, gap tarkibida kelgan vaziyatlarida farqlash belgilari asosli misollar yordamida ishlab chiqildi. Demak, aytib o'tishimiz mumkinki, so'z turkumlari o'rtasida ma'lum aloqa bor. Ayrim so'zlarning qaysi turkumga kirishini ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini inobatga olgan holda aniqlash kerak. Bu tilshunosligimiz uchun asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 109 b.
2. J.D.Eltazarov. So'z turkumi paradigmasidagi o'zaro aloqa va ko'chish hollari. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. A.B.Pardayev, S.A.Qurbonov. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU nashriyoti, 2021, 83 b.
4. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abzalov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent. Fan va texnologiya, 2009. 183 b.
5. Shuhrat. Oltin zanglamas. Toshkent. Zukko kitobxon nashriyoti. 2024. 144 b.

6. Utkirovna, E. S. (2021). O'zbek tilidagi ko 'makchilashayotgan ayrim so 'zlar xususida. *Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi*, 2(4), 1-7.
7. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).
8. Муродовна, Р. М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.
9. Shokir o'g'li, P. S. (2024). Omonim so 'zlarni o 'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. *Miasto Przyszłości*, 54, 1744-1746.
10. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.